



## BIOGEN ELEMENLARNI INSON ORGANIZMGA TA'SIRI MN-.MARGANES ELEMENTI MISOLIDA

*Tibbiyot fakulteti farmatsiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Ahmadjonava Sadoqat Azamjon qizi**

**Ilmiy rahbari dots.Qalandarov Qobil Suyarovich**

*Toshkent shahar Alfraganus University.*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda inson organizmga ta'sir qiladigan biogen elementlar va Mn elementini organizmga ta'sir haqida haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Tirik organizmdagi hayotiy jarayonlarda bevosita ishtirok etuvchi yoki shu moddalar tarkibiga kiruvchi elementlar biologik faol yoki biogen elementlar deb ataladi. Biogen elementlarning sinflanishi ularning elektron tuzilishi, organizmdagi miqdori, bajaradigan vazifalarining ahamiyati va boshqa qator tushunchalarga asoslangan.

Odam organizmi murakkab ochiq termodinamik sistemadir.Undagi sodir bo'ladigan biologik jarayonlar o'zaro uzviy ravishda bog'liq holda amalga oshadi.Biokimyoviy jarayonlar moddalar tarkibiga kiradigan elementlarning va ularni hosil qiladigan kimyoviy bog'larining tabiatи,molekula tuzilishi va miqdoriga bog'liq ravishda amalga oshadi.Tirik organizmning normal hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan va ularning tanqisligi ba'zi patologik holatlarga olib keladigan,organik va noorganik birikmalar asosini tashkil etuvchi elementlar biogen elementlar hisoblanadi.Odam organizmidagi turli a'zolar ba'zi elementlarni o'zida tutib qolib,ma'lum miqdorda to'playdi va shu a'zo faoliyati uchun bu elementlar ahamiyatga ega bo'ladi.Organizmda biogen elementlar miqdorlarining kamayishi patologik holatning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Odam organizmida umumiyligi olganda biosferada bo'lgan barcha elementlar saqlanishi mumkin.Elementlarning miqdori va taqsimlanishi odamning yoshiga,jinsga,mehnat turi va yil fasllariga bog'liq bo'ladi.

Marganes-mikrobiogen element bo'lib,deyarli barcha a'zo va to'qimalarda uchraydi . Organizmdagi marganes eng ko'p miqdorda mushaklarda,bosh miyada,buyrakda taloqda suyakda saqlanadi.Marganes d-elementlar singari fermentlar tarkibiga kiradi.Masalan:arginaza tarkibiga kirib fermentni spetsipik ta'sirini belgilaydi.Marganes moddalar almashinuviga ham sezilarli element hisoblanadi.Element B va E vitamanlar almashanuvida ta'sir qiladi.Marganes insulinning glikemik ta'sirini kuchaytirib , qondagi qand miqdorini kamaytiradi . Undan tashqari aterosklez rivojlanishini to'xtadi . Organizmda marganes miqdorining kamayishi E vitaman miqdorining kamayashiga , patologik semirishga , endemik buqoq kasalligiga olib keladi . Oziq - ovqat mahsulotlari qizil lavlagi , pomidor lavlagi soya , no'xat kartoshkada marganes ko'p bo'ladi .

Xulosa: Inson organizmda biogen elementlar muhim ahamiyatga ega har bir element o'z tasirini namoyon qiladi. Umuman olganda organizmda biosfera ichida bo'lgan barcha elementlar saqlanishi mumkin. Ushbu tezisdan tashqari organizmda bo'lgan biogen elementlarning hammasini miqdori va taqsimlanishi qator omillarga bog'liqdir. Sog'ligingizga befarq bo'lmang!

### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tibbiy kimyo kitobi, N.T.Alimxodjayeva, X.S.Tadjiyeva, Z.A.Ikromova, G.G. Suleymanova.
2. Anorganik kimyo A.S.Rahimov.
3. A.Rustamov organik kimyo.
4. M.Gulamova analitik kimyo.
5. Fayzullayev.O analitik kimyo.